

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

**Qo‘l yozma huquqida
UDK: 657.4:658.2:69**

MAMUTOVA AMINA RAXMETOVNA

**QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV HISOBINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08-“Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilimiy darajasini olish
uchun tayyorlangan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., professor N. B. Abdusalomova

Toshkent-2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	13
1.1. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda qurilish korxonalarning tutgan o‘rni va o‘ziga xos jihatlari.....	13
1.2. Boshqaruv hisobini rivojlanish bosqichlari va nazariy asoslari	22
1.3. Boshqaruv hisobini tashkil etishning me‘yoriy-huquqiy asoslari va xorijtajribasi.....	32
1-bob bo‘yicha xulosa	43
II BOB. QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH AMALIYOTI VA USLUBIY ASOSLARI	45
2.1. Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobining o‘ziga xos jihatlari.....	45
2.2. Boshqaruv hisobining tuzilmaviy tartiblari, vositalari va usullari.....	57
2.3. Qurilish tashkilotlarida xarajatlar hisobini tashkil etishning uslubiy asoslari	73
2-bob bo‘yicha xulosa... ..	89
III BOB. QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING YO‘NALISHLARI.....	93
3.1. Qurilish tashkilotlarida xarajatlarni boshqaruv hisobini uslubiy jihatlarni takomillashtirish	93
3.2. Boshqaruv hisobi va ichki boshqaruv hisoboti tizimini axborot bilan ta‘minlash	110
3.3. Boshqaruv hisobida mahsulotni kalkulyatsiya qilishni uslubiy asoslari	124
3-bob bo‘yicha xulosa	139
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	142
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI	145
ILOVALAR	

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Qurilish dunyodagi eng yirik sanoat bo'lib, jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 13 foizini tashkil qiladi. So'nggi yillarda qurilish sanoatida raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Internetdagi mashhur qidiruv so'rovlarini tahlil qiluvchi xalqaro Exploding Topics qurilish bozorining rivojlanishi prognozini taqdim etdi. Kompaniya ma'lumotlariga ko'ra, kelajakda sanoatning o'sishini belgilaydigan bir qancha tendentsiyalar mavjud. Unga ko'ra 2027 yilda qurilish ma'lumotlarini modellashtirish bo'yicha global bozor hajmi o'rtacha yillik o'sish 16,3% ya'ni 14,89 milliard dollarga yetadi. Transparency Market Research xalqaro tahliliy kompaniyasi tadqiqotiga ko'ra, qurilish robotlarining jahon bozori 2031- yilga borib 359 million dollarga yetadi¹. Shu boisdan, mamlakat iqtisodiyotida qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini tashkil qilish zarurati dolzarbligini yanada oshiradi.

Jahonda qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobi va xarajatlar hisobini takomillashtirish global o'zgarishlar sharoitida samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy nazoratni takomillashtirish, boshqaruv hisobini yaxshilash uchun texnologik innovatsiyalar, xarajatlarni boshqarish bo'yicha xalqaro amaliyot, jahon iqtisodiyotining qurilish xarajatlariga ta'siri, moddiy xarajatlarni hisobga olish muammolari, qurilishning turli bosqichlarida xarajatlarni hisobga olishning murakkabligi, qurilish materiallari va mehnat xarajatlaridagi noaniqlik va beqarorlik, buxgalteriya hisobi va hisobotining yagona tizimining yo'qligi, uzoq muddatli loyihalar uchun hisob-kitoblar va byudjetlashtirish, qurilish loyihalari bo'yicha hisobni tashkil etish muammolari bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

¹ <https://digital-build.ru/8-mirovyh-tendencij-stroitelnoj-otrasli-2024-2027/>.

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. O'tgan 7 yilda ushbu sohada salmoqli o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, qurilish xizmatlari hajmi 2 barobarga oshib, 2017-yilda 35 trln so'mlik qurilish xizmatlari amalga oshirilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 151 trln so'mni tashkil etdi. YaIMda qurilish xizmatlarining ulushi 6,4 foizdan 7,1 foizga o'sdi². Qurilish sohasining rivojlanishida albatta ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlarning hissasi yuqori. Ushbu sohada ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tarkibida milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga tobora integratsiyalashuvi, global xavf-xatarlarning oshib borishi sharoitida xalqaro qurilish kompaniyalari bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, "Yangi O'zbekiston" massivlari qurilishi, Ipoteka dasturlari doirasida subsidiyalar ajratish, "Mening birinchi uyim" dasturi, qurilish materiallari bozorini rivojlantirish, ijtimoiy muhtoj qatlam uchun arzon uy-joylar qurish, zamonaviy energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish, ko'p qavatli uylarning boshqaruv tizimini takomillashtirish, ko'p qavatli uylar massivlarida obodonlashtirish tizimini takomillashtirish, kichik va o'rta shaharlarni kengaytirish, o'rta shaharlar infratuzilmasini yaxshilash kabi bir qator islohotlar o'z natijasini bermoqda. Sohaning ilmiy tadqiqotchi-ekspertlari va tahlilchilari oldida dolzarb ahamiyatga ega qator vazifalar qatorida qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish vazifalarini ham qayd etish lozim. Qurilish tashkilotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda xarajatlar hisobini takomillashtirish, biznes-jarayonlari kesimida boshqaruv hisobining funksional ob'yektlarini asoslash, qurilish tashkilotlarining faoliyatini real baholash uchun javobgarlik markazlari bo'yicha ularni taqsimlash usullarini joriy etish, tannarxni hisobga olish tartibi ishlab chiqish, qurilish tashkilotlarida ichki boshqaruv hisobotini tuzish va shakllantirish modelini ishlab chiqish

² <https://review.uz/oz/post/infografika-2017-2023-yillarda-ozbekiston-qurilish-sohasining-rivojlanishi>

vazifalari mazkur muammolar tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarning dolzarbligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2020-yil 5-fevraldagi PQ-4586-son "Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish choralari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 14-noyabrdagi PF-5577-son "Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2024-yil 17-apreldagi VMQ-214-son "O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi hamda 2022-yil 20-apreldagi VMQ-200-son "Qurilish sohasiga oid yagona ma'muriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobining nazariy hamda uslubiy asoslari xorijlik olimlar K.Druri, B.Nidlz, X.Anderson, D.Kolduel, R.Garrison, E.Norin, P.Bryuer, S.T.Xorngren, S.M.Datar, M.V.Rajan, J.K.Shim, E.A.Antikson, M.A.Baxrushina, V.V.Bursev, A.D.Shermet, V.B.Ivashkevich, A.V.Ilina, T.Karpova, N.A.Ermakova, A.N.Shulekin, Y.V.Smernova, M. E. Borovskaya va O.V.Savostina³ va boshqalarning ilmiy

³ Друри К. Управленческий и производственный учет / Учебный комплекс для студентов вузов; Пер. с англ. В.Н. Егорова. — 6-е изд. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2022.— 1423 с.; Нидлз Б. Принципы бухгалтерского учета [Текст] / Б. Нидлз, Х. Андерсон, Д. Колдуэлл; Пер. с англ.; под ред. Я.В. Соколова. - М., 2-е изд.: Финансы и

ishlarida keng yoritilgan.

Qurilishning iqtisodiy jihatlarini o'zbekistonlik olimlar K.B.Urazov, B.A.Iskandarov, M.M. Miraxmedov, I.X.Davletov⁴ va boshqalar mavzuga doir ba'zi jihatlarini yoritganlar. Bu masala boshqaruv hisobi sohasida tadqiqot olib borgan olimlar A.A.Karimov, R.D.Do'smurodov, A.K.Ibragimov, B.A.Xasanov, N.B.Abdusalomova, M.Q.Pardayev, A.X.Pardayev, B.Y.Maxsudov, X.Saidakbarov⁵ va boshqalarning ilmiy ishlarida keng ko'lamda o'rganib chiqilgan.

статистика, 2004. - 496 с.; Гаррисон Р., Норин Э., Брюэр П. Управленческий учет. СПб.: Питер, 2012. - 592 с. (с 38); Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting: Managerial emphasis/ 14th edition. — Prentice Hall: New Jearsey, 2012. — 892 pages.; Shim J.K.Manageirial Accounting. Paperback. 2nd edition. McGraw-Hill Education-Europe. 2011. p.384.; Аткинсон Э.А. Управленческий учет [Текст] / Э.А. Аткинсон, Р.Д. Банкер, Р. Каплан. Пер. с англ. — М.: Вильямс, 2016. - 880 с.; Ивашкевич В.Б. Управленческий учет и контроллинг результативности бизнеса: учебное пособие / В.Б. Ивашкевич, А.И. Шигаев. — Казань: Казан. ун-т, 2019. — 117 с. Бахрушина М.А. Управленческий учет в государственных (муниципальных) учреждениях: методология, организация и направления совершенствования. Монография / Под ред. д.э.н., проф. М.А. Вахрушиной. — М.: Научные технологии, 2015. — 268 с.; Бурцев В.В. Организация системы внутреннего контроля коммерческой организации. — М.: Экзамен, 2013. 197 с.; Шеремет А. Д., Керимов В. Э. Уникальные методы управленческого учета: модель “Кайзен-костинг” // Аудит и финансовый анализ. — 2018. — № 1. — С. 303–310.; Ивашкевич В.Б. Бухгалтерский управленческий учет: Учебник /. - 3-е изд., перераб. и доп. — М.: Магистр: НИЦ ИНФРА-М, 2015. - 448 с.; Ильина А. В. Управленческий учет: учеб. пособие / А. В. Ильина, Н. Н. Ильшева. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. — 180 с.; Карпова Т. Учет затрат и калькулирование себестоимости готовых объектов и отдельных циклов работ при долевом строительстве: монография. —М, 2018. — 276 с.; Шулекин Александр Николаевич. Развитие управленческого учета в организациях жилищного строительства в условиях институциональных изменений. Специальность: 08.00.12 – Бухгалтерский учет, статистика Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Новосибирск – 2022. – 188 с. Смирнова Ю.В. Совершенствование бухгалтерского управленческого учета в розничных торговых сетях. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2023. 223 с. М. Е. Боровская. Управленческий учет как элемент системы управления издержками лесохозяйственного производства. Труды БГТУ серия 5 № 2 2021. Савостина О.В. Развитие теоретико-методических основ анализа и операционного бюджетирования производственной деятельности промышленного предприятия. Дисс. канд. экон. наук. Екатеринбург, 2014. – 246 с.

⁴ K.B.Urazov. Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari. O'quv qo'llanma. Sam-2007., B.A. Iskandarov. Qurilish korxonalari faoliyatini boshqarish. Journal of marketing, business and management(jmbm)/sjif factor: 5.57. VOLUME 2, ISSUE 2 (May) ISSN: 2181-3000. 2023 –y. M.M. Miraxmedov, X.I. Yusupov, I.M. Maxamataliyev, E.A. Shomirzayev, A.T. Ilyasov. Qurilish infrastrukturasi va ishlarini tashkil etish. Darslik. Toshkent – 2017., Davletov I.X. Qurilish iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TAQI, 2019. – 196 bet.

⁵ Ибрагимов А.К., Хасанов Б.А., Ризаев Н.К. Амалий бошқарув ҳисоби. – Т.: Молия 2014 й. – 404 б.; Пардаев А.Х., Пардаева З.А. Бошқарув ҳисоби / Дарслик – Т.: «Тафаккур» нашриёти, 2014. – 396; Дусмуратов Р.Д. Бухгалтерия ҳисоби назарияси. – Т.: Yangiyul polygraph service. 2007 й. – 352 б.; Курбанов З.Н. Солиқ ҳисоби ва аудитининг назарий ва методологик асослари. Дис.икт.фан. д-ри. Тошкент.: БМА, 2006. 272 б.; Пардаев М.Қ. Иқтисодий таҳлил назарияси. Самарқанд.2001 й; Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби: назария ва услубиёт. – Т.: Молия, 2003 й. – 248 б.; Махсудов Б.Ю. Бошқарув ҳисобида бюджетлаштириш методологиясини такомиллаштириш. Икт. фан. док. дисс. автореферати. – Т.: ТМИ, 2018; Abdusalomova N.B. Boshqaruv hisobi tizimida byudjetlashtirish va ichki nazorat metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. diss. avtoreferati. – Т.: TMI, 2019; Saidakbarov X.A. Boshqaruv hisobi tizimida biznes-jarayonlari va ularni hisobi metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. diss. avtoreferati. – Т.: TDIU, 2024.

Mazkur tadqiqotlarda boshqaruv hisobining umum uslubiy asoslariga tayangan holda ayrim muammolar tashkiliy jihatlarini tadqiq qilingan. Zero, tadqiqotlarga ko'ra, boshqaruv hisobining nazariy muammolari masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni, uning amaliy jihatdan turli sohalarga mos kelishi hisoblanadi. Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobi bo'yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega mavzu hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 5-sonli "Qurilish tashkilotlarida axbarot ta'minot jarayonlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobining maqsadi, vazifalari, o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;

xarajatlar hisobining iqtisodiy mohiyati, xarajatlarning shakllanish tizimini tadqiq qilish;

qurilish tashkilotlarining o'ziga xos xususiyatlari asosida bilvosita xarajatlarni taqsimlash bo'yicha takliflar berish;

qurilish tashkilotlarida xarajatlarni boshqaruv hisobining kompleks modelini ishlab chiqish;

qurilish shartnomalari bo'yicha hisob-kitoblarni hisobga olish metodologiyasini ishlab chiqish;

qurilish tashkilotlarida xarajatlar hisobini yuritishda biznes jarayonlarining taqdim etilgan boshqaruv hisobi va ichki hisobot tizimini ishlab chiqish;

boshqaruv tizimini integratsiya qilish orqali qurilish tashkilotlari uchun byudjetlashtirish metodikasini ishlab chiqish;

investor – buyurtmachi – pudratchi – subpudratchi” munosabatlari zanjirida qurilish-montaj ishlarining tannarxini shakllantirish tartibini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’yekti sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi qurilish tashkilotlarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini takomillashtirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida taqqoslash, qiyosiy taqqoslash, kuzatuv, nazariy va amaliy o‘rganish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, iqtisodiy matematik tahlil, buxgalteriya hisobi usullari va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qurilish tashkilotlari boshqaruv hisobi tizimini uning tarkibida an’anaviy tarzda foydalaniluvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda ekologik, ijtimoiy va korporativ omillar, biznesning barqarorligini va uning atrof-muhitga ta’sirini baholash usulini joriy qilish orqali takomillashtirilgan;

qurilish tashkilotlari faoliyatida yuzaga keluvchi bilvosita xarajatlarni turli bo‘limlar yoki faoliyat toifalari bo‘yicha taqsimlashda “Umumiy xarajatlar” schyoti bo‘yicha kompaniyaning umumiy rentabelligiga bilvosita xarajatlarning ta’sirini baholash orqali ko‘p bosqichli tahliliy hisob tizimini ishlab chiqish taklifi asoslangan;

qurilish tashkilotlarida xarajatlarni boshqaruv hisobining kompleks tartibi xarajatlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita bo‘linishi hamda qurilish loyihasining bosqichiga (rejalashtirish, loyihalash, qurish, ishga tushirish) muvofiq holda ularni batafsil taqsimlash asosida takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

qurilish tashkilotlarining boshqaruv hisobida ob’yektlarning hayot sikli xarajatlarini baholash konsepsiyasi tannarxni hisoblashda ob’yektni ekspluatasiya qilish, uni eskirish va foydalanishdan chiqarish jarayonida foydalanish xarajatlarini ham hisobga olish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

taktik va strategik boshqaruv hisobining mazmuni, qurilish tashkilotlarini boshqarish tizimidagi oʻrni va asosiy xususiyatlari ochib berilgan;

boshqaruv hisobi tizimini rivojlantirish yoʻnalishlarini belgilovchi bosh pudratchi qurilish ishlab chiqarishining tashkiliy-texnologik xususiyatlariga aniqlik kiritilgan;

pudratchi qurilish tashkilotlarida asosiy boʻlmagan faoliyat turlarini aniqlashga asoslangan qoʻshimcha xarajatlarni hisobga olishning yangicha yondashuvi ishlab chiqilgan;

uchta asosiy bosqichdan iborat qurilish tashkilotning innovasiyalari toʻgʻrisida ichki boshqaruv hisobotini shakllantirish tartibi ishlab chiqilgan;

ichki boshqaruv hisoboti tahliliy maʼlumotlarini shakllantirish boʻyicha barcha meʼyoriy hujjatlarni shaklda keltirilgan standarti taklif etilgan;

qurilish loyihasiga jalb etiladigan investisiya loyihasi boʻyicha tannarxni aniqlash usuli loyihaning narxini aniqlashda, qurilish tugagandan soʻng obʼyektni ishlatishdan kutilayotgan daromad, ijara, koʻchmas mulkni sotish yoki boshqa moliyaviy imtiyozlarni hisobga olish tartiblarini kiritish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qoʻllanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar, rasmiy manbalardan olingan maʼlumotlar, tadqiqotda qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini takomillashtirishga doir maʼlumotlarning asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar hamda “Nokis Isker” MChJ, “Oʻzsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi rasmiy maʼlumotlari, shuningdek, taklif va tavsiyalarining qurilish tashkilotlari tomonidan boshqaruv hisobini takomillashtirishda foydalanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilmiy tadqiqot ishida ishlab chiqilgan nazariy tavsifdagi xulosa va takliflardan qurilish tashkilotlarining boshqaruv hisobini takomillashtirish jarayonida ularning faoliyatidagi eng muammoli sohalarni aniqlash, resurslarni toʻgʻri boshqarish va xarajatlarni kamaytirish zaxiralarini oʻrnatish, qurilish

loyihalarining samaradorligini oshirish uchun ilmiy-uslubiy qoidalar tizimini shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan amaliy takliflardan qurilish tashkilotlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga to‘g‘ri baho berish, foydani oshirish va rentabellikni ko‘tarish bo‘yicha mavjud ichki xo‘jalik imkoniyatlarini aniqlash orqali ularning moliyaviy holati barqarorligi va shaffofligini ta‘minlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

qurilish tashkilotlari boshqaruv hisobi tizimini an‘anaviy tarzda foydalaniluvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda ekologik, ijtimoiy va korporativ omillar, biznesning barqarorligini va uning atrof-muhitga ta‘sirini baholash usulini joriy qilish orqali takomillashtirish bo‘yicha taklifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 13-martdagi №01-07/01-717-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlarini yaxshilash, balki bugungi kunda muhim raqobatdosh ustunlikka aylanib borayotgan ekologik va ijtimoiy mas‘uliyat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, yashil buxgalteriya hisobini joriy etish orqali qurilish tashkilotlari o‘z faoliyatining atrof-muhitga ta‘sirini yaxshiroq baholash imkonini bergan;

qurilish tashkilotlari faoliyatida yuzaga keluvchi bilvosita xarajatlarni turli bo‘limlar yoki faoliyat toifalari bo‘yicha taqsimlashda “Umumiy xarajatlar” schyoti bo‘yicha kompaniyaning umumiy rentabelligiga bilvosita xarajatlarning ta‘sirini baholash orqali ko‘p bosqichli tahliliy hisob tizimini ishlab chiqish taklifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 13-martdagi №01-07/01-717-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida